



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 2 - fevral

63-10-0-Q/24

Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 46-sonli qaror ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddasiga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagi qaror bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 1-iyundagi 82-sonli farmoni bilan 2024-yil 1-avgustdan boshlab alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab- internatlar, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda - Ijtimoiy himoya milliy agentligi) tuzilmasiga o‘tkazilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining

a) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yo‘llash bo‘yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya hamda

ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlarga yo‘llash bo‘yicha psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar negizida Ijtimoiy himoya milliy agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari huzurida yagona psixologik-tibbiy- pedagogik komissiyalarni (keyingi o‘rinlarda - PTPK);

b) alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda qisqa muddatli ta‘lim va tarbiya berishga mo‘ljallangan “G‘amxo‘rlik” guruhlarini;

2024-yil 1-fevraldan Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda;

2024-yil 1-apreldan Toshkent viloyatidagi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda;

2024-yil 1-avgustdan respublikaning qolgan hududlaridagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda tashkil etish;

v) 2024 yil 1-apreldan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash hududiy markazlarida bolalar rehabilitatsiyasi bo‘limlarini (keyingi o‘rinlarda - Rehabilitatsiya bo‘limlari) tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

“G‘amxo‘rlik” guruhlari to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash markazlarining bolalar rehabilitatsiya bo‘limlari uchun zarur jihozlar ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Ijtimoiy himoya milliy agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari tomonidan PTPK a‘zolariga har oyda mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 50 foizi miqdorida respublika budjeti mablag‘lari hisobidan haq to‘lanishi;

“Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimida PTPKlar faoliyatini raqamlashtirish, bolaning PTPKdan o‘tish to‘g‘risidagi “8M8” xabarnomani yuborish va ushbu qarorning 5-bandida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari Uzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanishi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining 2019-yil 20-maydagi 403-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qarori to‘g‘risida”gi qarorining 2-bandi, beshinchi xatboshisi chiqarib tashlansin va oltinchi xatboshi beshinchi xatboshi deb hisoblansin.

4. Ijtimoiy himoya milliy agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi (S.Ergashev), viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (I.Akbarov) manfaatdor boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari O.Sultanbekov zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev